SOBIR SAYQALIY IJODIDA AN'ANA VA XALQCHILLIK, O'ZIGA XOSLIK

Jumanov Bektosh Karim o'g'li
SamDU 2-bosqich tayanch doktaranti

Mumtoz asarlarning muhim xususiyatlaridan biri – ulardagi umuminsoniy gumanistik g'oyalarning yashovchanligidir. Bu g'oyalar har biri yangi poklanish, tozalanish davri ruhiga hamohang bo'ladi, ezgulik va adolat, odamiylikni targ'ib etib, kishilarning qalbi va fikriga ijobiy ta'sir etib turadi.

Shu bois biz mumtoz adabiyotni sevib o'qiymiz, ruhlanamiz, umr yo'limizda ularni o'zimizning xamrohimiz deb bilamiz.

Inson omili, shaxs komilligiga ayricha urg'u berilayotgan, insonni ma'naviy kuch-qudratini namoyon eta olishi uchun imkon yaratilayotgan ayni kunlarda badiiy asardagi xalqchillik g'oyalari shunday ahamiyat kasb etadiki, ular ma'naviy ehtiyojni qondiradigan ma'naviy sarchashmaga aylanadi. Zotan mustaqillik inson ijtimoiy ahloqini yo'naltiruvchi, taraqqiy ettiruvchi masalani kun tartibiga qo'ydi. Bu esa nodir badiiy asarlarni qayta-qayta o'rganishga, izchil tekshirishga, taraqqiyotimizga esh bo'la oladigan bebaho hikmatlarni xalqimizga to'la-to'kis yetkazib berishga kechiktirib bo'lmaydigan zaruriyat tug'ilganligini ko'rsatadi.

Ana shu maqsadda biz tadqiqotning ushbu bobida Sayqaliy dostonida xalqchillik tendensiyasi va an'analarga munosabat masalasini o'rganishga harakat qildik.

Sayqaliy dostonida xalqchillik tendensiyasi haqida so'z yuritishga harakat qildik.

Sayqaliy dostonida xalqchillik tendensiyasi haqida so'z yuritishdan oldin ungacha yaratilgan Bahrom Go'r haqidagi dostonlarda ham xalqchillikning aks etishini tahlil etish foydadan xoli emas. Shuni ham ta'kidlash lozimki, badiiy asarning g'oyaviy mazmunini uning shaklidan ajratib bo'lmaydi. Bunday ajratish faqat shartli ravishda, ilmiy kuzatishda qulayliklar bo'lgani uchun uni elementlarga bo'lib o'rganishda amalga oshiriladi. Madomiki, "syujetining ishlanishida tafovut bor ekan, shoirlarning har biri uni o'z maqsadi, estetik qarashlari, ideali asosida o'zgartirgan, demak unda ijodkorning g'oyasi, u yashagan zamon talablarini aks ettirgan bo'lishi shart". Bu holni «Shohnoma", "Haft paykar", "Hasht bihisht", "Sab'ai sayyor" asarlari syujetining tadqiqidan ham ko'rish mumkin.[1]

Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, ularning har biri hikoyalar syujetiga o'zgartirish kiritar ekan, uni muayyan maqsadga yo'naltirgan, muayyan ideyalarni ifodalash, tasdiqlash uchun xizmat qildirgan. Bu faqat syujet chizig'ining umumiy ko'rinishi, asosiy fabulasidagina emas, balki uning har bir xalqasi, har bir elementida o'z aksini topgan.

Firdavsiy qahramonlik, afsonaviy kuch-qudratni madh etish, Eron shohlari taxtining shijoatini qo'riqlovchisi, merosxo'ri obrazini yaratishni niyat qilishi uchun "Shohnoma"dagi "Bahrom Go'r" qissasini nuqul ov va merganlikka oid voqealar bilan to'ldiradi. Bahromning o'q otishdagi mahorati, vahshiy kuchlarni yengish, dushmanlarni qirishdagi pahlavonligi, tadbirkorligini ta'kidlaydi, uning bu yo'lda qilgan gunohlarini ham kechiradi, ulug'lab ko'klarga ko'taradi. Dushman tomonidan taxtning qo'lga kiritilish sabablarini Bahromning parvosizligidan emas, balki saroy ahlining xoinligidan deb biladi.

Nizomiy Firdavsiy oxirgi planga surib qo'ygan sevgi mavzuini ancha kengaytirib, asarning asosiy mavzuiga aylantiradi, Firdavsiydan farqli o'laroq, ov va merganlik, dala-dasht kezib turli hayvonlar bilan olishishga bag'ishlangan hikoyatlarni kamaytirib (No'mon saroyidagi voqealar tasviri bundan mustasno),

[1] М. Муҳиддинов. Барҳаёт анъаналар. Тошкент, Фан, 1987, 59-бет.

asosiy e'tiborni Bahromning oshiq sifatidagi qiyofasi, hukmdorlikdagi xatti-harakatlarini ko'rsatishga qaratadi. Ovga oid xususiyatlar ana shu bosh mavzuga bo'ysundirilgan. Nizomiy qandaydir afsonaviy qudratga ega shohni emas, balki real hukumdor obrazini yaratadi, o'z davrini qiziqtirgan masalalar – podsho va saroy, podsho va xalq, podshoning shaxsi va davlatni boshqarish, adolat va osoyishtalik, podsho, xalq va vatan daxlsizligi kabi ijtimoiy masalalarni tasvirlab, bu boradagi o'z qarashlarini ifoda etadi. Uningcha, shoh har qancha oqil va tadbirkor, shaxsiy shijoatga molik bo'lsa-da, lekin u xalq bilan birga bo'lmasa, davlat ishlari, yurtni boshqarish bilan jiddiy shug'ullanmasa, zolimlarni jazolab, adolatni himoya qilmasa – uning saltanati uzoqqa cho'zilmaydi, u hukmdorlik qilishga loyiq emas. Ishqibozlik, ayshu ishratning haddan oshishi, g'aflatda qolish mamlakatni xarob bo'lishga, elni xonavayron bo'lishga olib keladi. "Haft paykar"da keltirilgan yetti qasr, yetti mahbus hikoyalari, cho'pon va it hikoyasi, Chin xoqonining bostirib kelish epizodlari bular hammasi ana shu g'oyani ilgari surishga xizmat qilgan.

Xusrav Dehlaviy Nizomiydagi bu g'oyani ancha o'zgartirgan, shohga nisbatan aytilgan keskin fikrlarni yumshatgan, go'yo Bahromni himoya qilayotganday, uning salbiy xislatlarini yoqlaganday maydonga chiqadi. Bu esa Nizomiyga nisbatan bir qadam orqaga chekinish edi (albatta, bu narsa Xusrav Dehlaviyning siyosiy-ijtimoiy qarashlari, estetik prinsiplaridan kelib chiqadi). Biroq shuni ham qayd qilish kerakki, ishq-muhabbat motivlari, bu boradagi sarguzashtlar tasviri Xusravda Nizomiyga nisbatan ta'sirchanroq chiqqan.

Alisher Navoiy ham "Sab'ai sayyor"ni yozishga kirishar ekan, ana shu ishq-muhabbat motivini yanada kuchaytirishni, uni asosiy mavzu qilib olishni niyat qilib oladi. Bu borada u Nizomiydan ham, Xusravdan ham olg'a ketadi: asar syujetining mazmunini, voqealarni taraqqiy ettiruvchi, harakatlantiruvchi, bir-biriga bog'lab, yaxlit holga keltiruvchi fikrni ham shu ishq mojoralaridan iborat qilib qo'yadi. Bu hol asarning boshidan oxirigacha davom etuvchi asosiy qoliplovchi hikoyadagina emas, balki qolgan olti hikoyada ham o'z ta'sirini qoldirgan.

Navoiyning ishqni asosiy mavzu qilib olishdan maqsadi nima? Asarni boshqa g'oyalardan xoli etishmi? Ishqni u "Farhod va Shirin", xususan "Layli va Majnun"da yetarli tasvir etgan ediku?

Avvalo, shuni aytish kerakki, ishq-muhabbat mavzusi Navoiyning har bir dostonida alohida tomoni bilan ko'zga tashlanadi, uning muayyan bir qirrasi badiiy hal etiladi.

Ikkinchidan, Alisher Navoiy ishqni dostonning asosiy mavzui qilib olish bilan, uni ijtimoiy g'oyalardan mutloq xoli qilib qo'ygan emas. "Sab'ai sayyor"da shohlik va yurtning daxlsizligi, adolat va xalqparvarlik, zulmga qarshi kurash, adolat va johil, nodon podsholarning roli kabi davrning muhim dolzarb masalalari dadillik bilan o'rtaga tashlangan va ijobiy hal qilingan. Ilgarigi shoirlardan farqli o'laroq, Navoiy bu masalalarni boshqacharoq hal etadi. Unda bu mavzular o'zaro aloqador qilib yoritilgan, buni bosh hikoyada ham, ichki hikoyalarda ham ko'ramiz. Yana shuni aytish kerakki, ijtimoiy motivlar Navoiy dostonining ichki hikoyalarida kuchli, ular Bahrom obrazi orqali bevosita ifodalab bo'lmagan ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni aks ettirib, bosh obrazni to'ldirgan va bularning hammasi asar so'ngida bosh obraz orqali zamonga bog'langan. Navoiy Husayn Bayqaro va Badiuzzamonni maxsus tilga olib, ularni Bahrom ahvolidan o'rnak olishga, o'zlaridagi Bahromda uchraydigan yomon xislatlardan voz kechishga chaqiradi.

Uchinchidan, Navoiyning "Sab'ai sayyor"da ishqni asosiy mavzu qilib olishdan maqsadi voqealarni bir mavzu atrofida, bir markazga to'plash, asar syujetiga yaxlitlik, muntazamlik baxsh etish, uni mukammal shaklga ega bo'lgan badiiy asarga aylantirish edi. Bu usul unga bir tomondan asosiy syujetga aloqasi bo'lmagan, zo'rakilik bilan tiqishtirilgan hikoyatlar (ov, merganlikka bag'ishlangan)dan qutilishga, ixcham, sodda va qiziqarli syujetni yaratishga imkon bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, asar obrazlarini chuqurroq ishlab chiqishga, ular xarakterining individual tomonlari, ichki kechinmalarini yoritishga va demakki, ilg'or g'oyalarni yanada jonli va ta'sirli ifodalashga imkon tug'dirgan. Asarning bosh qahramoni Bahrom Navoiy qalamida tamoman yangicha talqinga ega bo'lgan. Biz uni kishilar taqdiriga tamoman befarq qaraydigan,

xudbin, mag‘rur shoh sifatida emas, balki o‘zgarib boruvchi, qalbida sof muhabbat alangalangan, qiynaluvchi oshiq sifatida, ishq va shohlik orasida ikkilanadigan, bunisini tutsa, bunisi qo‘lidan chiqib ketishidan hayiqadigan murakkab odam sifatida ko‘ramiz.

Bundan tashqari, buyuk Alisher Navoiy “Sab’ai sayyor”ning boshqa obrazlari orqali ham adolatparvarlik, gumanizm, saxiylik, soflik, chin sevgi va sadoqat, bilim va hunar, vatanparvarlik, bahodirlik kabi juda ko‘p xalqchillik g‘oyalarini tarannum etgan.

Navoiy dostoniga xalqchillik ruhini bergan yana bir xususiyat –qahramonlar kechinmalarini katta ko‘tarinki ruh bilan, batafsil tasvirlanishi, obrazlarining ichki dunyosini keng ochib berilganligidir.

Shunday qilib, Bahrom Go‘r haqidagi syujet Firdavsiydan tortib Nizomiy va Xusrav Dehlaviy orqali Navriygacha taraqqiy etib keldi. Aytilgan syujet evolyusiyasi haqidagi mulohazalardan shunday xulosa chiqarish kerakki, bu syujetning davr o‘tishi bilan tuzilishi, voqealari o‘zgardi, shu bilan birga, bu syujet evolyusiyasi g‘oyalar evolyusiyasini, siyosiy-ijtimoiy qarashlar evolyusiyasini o‘zida aks ettirdi. Bu esa har bir ijodkorning o‘z davri talabi bilan yuzaga kelgan, uning estetik qarashlarini taqozo etgan xalqchil prinsiplardan kelib chiqar edi.

Sobir Sayqaliy va “Bahrom va Gulandom” nomli dostonlar mualliflari – Fozil Yo‘ldosh, Sidqiy Xondayliqiy (yana bir noma’lum shoirning “Bahrom va Gulandom” dostoni) dostonlarida Bahrom mamlakat shohining o‘g‘li bo‘lib, u yoshligidan jasur va adolatli bo‘lib o‘sadi. Ovga ishqiboz bo‘ladi. Kunlarining birida u kiyik ketidan quvib borib, toqqa chiqadi va bir cholga duch keladi. Chol Chin mamlakati podshohining qiziga oshiq bo‘lib, uning vasliga yetolmagan va uning suratini chizdirib, shu bilan ovunib yurgan kishi edi. Qizning suratini ko‘rgan shahzoda unga oshiq bo‘lib, otasiga xabar bermasdan Chin yo‘liga tushadi va bir o‘zi ko‘pgina qiyinchiliklarni boshidan kechirib, Gulandom yurtiga yetib boradi, qahramonliklar ko‘rsatib qiz muhabbatini qozonadi va uni mamlakatga olib kelib uylanadi.

Ko‘rinib turibdiki, bu syujet “Sab’ai sayyor”dan tamoman farq qiladi. Bunda faqat Bahromning ovga ishqibozligini va Gulandom suratini ko‘rib oshiq bo‘lishigina “Xamsa” dostonlariga o‘xshashdir. Qolgan barcha voqealar xalq fantaziyasi orqali yaratilgan epizodlar hisoblanadi. Bu asarlarda Bahrom dahshatli shoh, ishratparast hukmdor emas, balki jasur va qahramon oshiq, odamlarning mushkulini oson qiluvchi tadbirkor va mard bahodir. Bahrom garchi shoh o‘g‘li bo‘lib, buning ustiga Gulandom vataniga bostirib kirgan dushmanlarni tor-mor etgan bahodir yigit bo‘lsada, lekin qiz oldida manmanlik qilmaydi, uni zo‘rlik bilan olishga intilmaydi. U eski janda kiyib olib, Dilorom qasri atrofida bir necha oylar kezib yuradi, xat berib, xat olishib o‘zining sevgi va sadoqatini izhor etadi, oxiri o‘z muhabbatiga erishadi.

Xalq dostonlarida muhabbat ikki tomonning roziligi va tengligi asosida vujudga keladi. Gulandom sohibjamol bo‘lish bilan birga aqlli, zukko qiz. U Bahromni jasurligi, olijanobligi uchun sevib qoladi.

Shunday qilib, Bahrom haqidagi qissa asta-sekin tarixiy zamondan uzoqlashib, xalq afsonalari xususiyatini kasb etib, undagi obrazlar romantik xislatlarni o‘zida mujassamlantira borgan. Bahromda real hayotiy xususiyatlar bilan birga ko‘pchilik folklor dostonlarida bo‘lganiday afsonaviy qudrat ham mavjud. U odamlarga yomonlik qiluvchi devlarni yengib ularni o‘ziga bo‘ysundiradi, dengizda nahangni o‘ldirib kemani qutqazadi: hisobsiz lashkar bilan jang qilib, g‘olib chiqadi va hakozo. Shu bilan birga Bahrom rahmdil va shafqatli, adolat va haqiqat uchun kurashuvchi shaxs; u kishilarga yaxshilik qilishga, tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishga harakat qiladi. Bu obrazda xalq orzu-istagi va g‘oyalari aks etgan. “Bahrom va Gulandom” dostonlarining yana bir xususiyati shundaki, unda voqealar “Xamsa”dagi boshqa dostonlarda bo‘lganiday fojia bilan emas, balki optimistik ruh bilan tugaydi. Bunda xalq dostonlariga xos umumiy optimistik xususiyat aks etgan: xotimada sevishganlar murod-maqsadlariga yetishadi. Shuning uchun bu dostonlardagi Bahrom obrazini Sharq adabiyotida XV asrgacha ishlanib kelgan va undan so‘ng davom etgan Bahrom Go‘rlar qatoriga qo‘shmasdan, ulardan farq qilish kerak. Nizomiy, Xisrav va Navoiy asarlarida Bahromning o‘limi ramziy xarakterga ega. Mualliflar xalq va davlat shohni Go‘r yutgani yaxshi, degan

g‘oyani aks ettirish uchun asar oxirini ana shunday tugatganlar. “Bahrom Go‘r” obrazi adabiyotda shu tariqa shuhrat qozongan.

Sayqaliy va boshqa xalq shoirlari ijod etgan dostonlaridagi Bahrom o‘lmaydigan obrazdir. Bu dostonlarda Bahrom va Gulandomdan tashqari Kishvar shoh (Bahromning otasi), shoh Fag‘fur (Gulandomning otasi), Dastur singari ijobiy obrazlari ham mavjud. Bu obrazlar Bahrom obrazini to‘ldirishga, bo‘rttirishga xizmat qiladi. “Jome’ul hikoyat” rivoyatiga asoslanuvchi “Bahrom va Gulandom” tipidagi dostonlarda voqealar rivoji, syujet chizig‘i jihatidan ko‘pgina umumiyliklar mavjud. Biroq bu dostonlar orasida talaygina farqlar, o‘ziga xosliklar bo‘lib, bu farqlar dostonlarning g‘oyaviy mazmuni va obrazlar mohiyatiga o‘z ta’sirini qoldirgan.

Shunday qilib, bir voqea (syujet) turli davrlarda har xil shoirlar tomonidan turli darajada ishlanib kelingan. Har bir asarda voqea yangi shakl, yangi tasvir kasb etib, yangi hayotiy muhitda yashay boshlagan. Har bir adib unga o‘z dunyoqarashi, uslubini singdirgan, ko‘nglidagi gaplarni bayon etib, badiiy mahorati yetguncha qalam surib, kitobxonni qiziqtiruvchi yangi asar yaratishga harakat qilgan.

Qayd etish lozimki, Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” asari ustida tadqiqot olib borgan R. Aliev, A.A. Semyonovning doston syujeti “Bahrom Go‘r” haqidagi asarlardan tubdan farq qiladi[2], deb ko‘rsatgan fikriga qo‘shilgan holda uni Firdavsiy, Nizomiy va Navoiy asarlaridagi syujetning davomi sifatida baholaydi.[3] Adabiyotshunos R. Aliev dostondagi Bahrom obrazini Bahrom Go‘rga qiyoslab, uning asosiy farqi “erkin shahzoda ekanligidadir”, deb ko‘rsatadi. Uningcha, Sayqaliydagi Bahrom “har qanday yomon xislatlardan xalos ideal qahramon” bo‘lib, shoh o‘z qaxramoni orqali, “og‘ir va mashaqqatli” hayot og‘ushida ezilib yotgan millionlarcha xalqning ko‘nglida jo‘sh o‘rgan eng muqaddas orzu-umidlarini bayon etib bera oldi. To‘g‘ri, “Bahrom va Gulandom”da xalq tafakkuri aks etgan. Bahrom afsonaviy kuch-qudratga ega, olijanob shaxs sifatida tasvirlangan, u ko‘pgina yaxshiliklar ham qiladi. Biroq u “ideal qahramon” ham, “millionlarcha xalqning eng muqaddas orzu-umidlarini” ifodalovchi obraz ham emas. Bahrom – eng avvalo oshiq, vafodor oshiq. Chunonchi, u yozadi: “Lekin shuni e’tirof etish kerakki, asarda keskin konfliktning yo‘qligi, dramatizmning kuchsizligi dostonning badiiy jihatdan yuksak bo‘lishiga putur yetkazgan. Asardagi asosiy konflikt Bahrom bilan Behzodning dunyoga turlicha qarashlaridir. Bahrom bilan Behzodning to‘qnashuvlari esa asosiy voqea bayon etilgandan keyin beriladi va osongina hal qilinadi. Shundan keyin Bahrom o‘z maqsadiga erishtiriladi. Bunda asar kompozitsiyasi, voqealarning muvaffaqiyatsizroq joylashtirilishi ham muhim rol o‘ynaydi”[4]. Bu yerda muallif, bizningcha, uch-to‘rt asr oldin yaratilgan adabiy yodgorlikga ob’ektiv, xolisona yondashmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A Istiqlol va ma’naviyat.-Toshkent: O‘zbekiston,1994.-160 b.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T.: 1999. 502-bet.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.-Toshkent: O‘zbekiston, 1996.-278 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
5. Alisher Navoiy. MAT. XX tomlik. Toshkent: Fan, 1990.
6. Abdug‘afurov A. Qalb qa’ridagi qadriyatlar.-Toshkent: Adabiyot va san’at, 1998. 216 b.
7. Abdurahmon Sa’diy. Tvorchestvo Navoi - vыsshiy etap uzbekskoy klassicheskoy poezii. Doktorskaya dissertatsiya. Moskva: 1949. S. 900.

[2] Собрание восточных рукописей АНЎзССР Т.II с. 233

[3] Алиев. «Сайқалий ва унинг “Баҳром ва Гулондом” асари ҳақида». Сайқалий. «Баҳром ва Гулондом». Тошкент, 1960. 12-бет

[4] Шу китоб, 13-14-бетлар.

8. Aliev R. «Sayqaliy “Bahrom va Gulandom”. Toshkent, “Fan”, 1960. Nashrga tayyorlovchi. 212-213-betlar.
9. Aliev R. «Sayqaliy va uning “Bahrom va Gulandom” dostoni». Nomzodlik dissertatsiyasi. T., 1964. Inv. R.D.943
10. Valixo‘jaev B. Mumtoz siymolar. 1-2-jildlar.-Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 321 b.
11. Valixo‘jaev B.O‘zbek epik poeziyasi tarixidan. Toshkent., 2001. – 248 b.
12. Vamberi G.Ocherki Sredney Azii, M., 1868, S. 336.
13. Gvaxariya A.A. O persidskix i gruzinskix versiyax “Baxram i Gulandam”. Jurnal narodov Azii i Afriki”, 1976. №2. S.114.
14. Dehotiy. Yak-du suxan dar borai dostoni Haft paykari Nizomiy. Kulliyot.V tom, nashriyoti Dushanbe, “Irfon”. 1966. 37-bet.
15. Jirmunskiy V.I., Zarifov X. Uzbekskiy narodnыy epos. M., 1947,
16. Zaxidov V.Yu. Mir idey i obrazov Alishera Navoi. Tashkent, 1973. S. 190.
17. Qayumov A. Asarlar. V tomlik. 3-jild,-Toshkent, Mumtoz so‘z., 2009.378.
18. Korogli X.G. Doston “Baxrom va Gulandom” Saykali i yego istochnik // jurnali narodov Azii i Afriki.№ 2. 1967. S.114.